

NUTQ NUQSONIGA EGA BOLALAR RIVOJLANISHIDA LOGOPEDIK O'YINNING AHAMIYATI.

Islomova Ozoda Sayfiddinovna-Jizzax
davlat pedagogika instituti, “Maxsus
pedagogika” kafedra o'qituvchisi
islomovaozoda1990@gmail.com

Abdusattarova Madina Yusuf qizi-Jizzax
davlat pedagogika instituti, Defektologiya
yo'nalishi III kurs 302-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalardagi nutq nuqsonlarni logopedik o'yin orqali bartaraf etish usullari haqida so'z yuritiladi. Nutq nuqsoniga ega bolalarning ta'limiy, tarbiyaviy, korreksion rivojlanishini logopedik o'yin orqali bartaraf etish usullari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: logopedik o'yin, alaliya, dizartriya, ekzogen, endogen, kommunikativ muloqat, emotsional-irodaviy, pedagogik qarovsizlik.

Aytib o'tish joizki, mustaqillikka erishilishi bilanoq, hukumatimiz tomonidan o'sib ulg'ayayotgan bolajonlarimizning ma'naviy- axloqiy tarbiyasiga, uni amalga oshirishda asosiy omillardan sanaluvchi til o'qitish masalalariga kuchli e'tibor qaratish dolzarb muammolardan biridir. Bunday diqqat e'tibor ona tilini o'rganish va o'qitish o'zligimizni anglash, uning ertangi kunimiz poydevori bo'lgan yoshlarimizni munosib tarzda tarbiyalab, voyaga etkazishning muhim vositasi ekanligini chuqur tushunish bilan asoslanadi. Ma'lumki, til vositasida inson muloqotga kirishadi – fikr almashadi, axborot oladi, bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydi. Jamiyatda tilni o'zlashtirish jarayoni kishilarning o'zaro nutqiy faoliyati (kommunikasiyasi) sharoitida amalga oshadi. Nutqi o'z yoshiga nisbatan qo'yilgan talablar darajasida rivojlangan bola atrofdagilar bilan tez va yengil muloqotga kirishadi, o'z istak va fikrini tushunarli qilib ifoda eta oladi, maktabda muvaffaqiyatli o'qib ketishi uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni egallaydi.

Nutq – tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. Nutq deganda uning og'zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo'lishidagi jarayonlar, ya'ni so'zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar) tushuniladi. Bolalar o'sib, ulg'aygani sari ularning nutgi ham rivojlanib boradi. Bu davrda ba'zan nutqning ma'lum darajadagi buzilishlari kuzatilishi mumkin. Nutq kamchiliklarining kelib chiqishi sabablarini oilada har bir ota-ona, maktabgacha tarbiya muassasalarida tarbiyachilar, maktabda

o'qituvchilar bilishlari zarur. Chunki nutq kishilarning til vositasi orqali aloqa jarayonining tarixan tarkib topgan formasidir. Shuningdek, nutq rang-barang ifodali tovushlarning majmuasidan iborat. Nutq bolalarda asta-sekin shakllanadi, bola o'sib rivojlanib boradi. Aslida bola nutqning o'sib borishidagi hal qiluvchi bosqich bir yarim yoshdan besh yoshgacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Bu davrda bolaning nutqi muayyan sur'atda, besh yoshdan keyin esa nutq intensiv ravishda xilma-xil o'sib boradi. Biroq ayrim bolalarning nutqiy rivojlanishida bir qator kamchiliklar uchraydi va ma'lum bir sababga bog'liq bo'ladi.

Nutq buzilishining ko'pgina turlari markaziy asab tizimining organik shikastlanishi bilan bog'liq bo'lib, u logoped va nevropatolog-shifokor yoki psixonevrologning hamkorlikda ishlashi bilan aniqlanishi mumkin. Bolalarda nutq buzilishini yuzaga keltiruvchi sabablar ichida tashqi (ekzogen) va ichki (endogen) omillar, shuningdek atrof-muhitning tashqi sharoitlari farq qilinadi. Nutqiy nuqsonning turli sabablarini ko'rib chiqishda evolyusion-dinamik yondoshiladi. Bu nuqsonning yuzaga kelish jarayonini tahlil qilishdan, anomal rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini va har bir yosh davrida nutqning rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olishdan iboratdir (I. M. Sechenov, L. V. Vigotskiy, V. I. Lubovski).

Bolalardagi nutqiy nuqsonlarning asosiy sabablari:

1. Embrion rivojlanish davridagi turli xil patologiyalar;
2. Xomiladorlik vaqtidagi toksikozlar, virusli va endokrin kasalliklar, jaroxatlar, qonning rezus-faktorga mos kelmasligi;
3. Tug'ruq vaqtidagi shikastlanish va asfiksiya;
4. Bola rivojlanishining birinchi yilidagi bosh miya kasalliklari (meningit, ensofalit).
5. Miyaning chayqalishi bilan birga sodir bo'ladigan bosh miya jarohatlari.
6. Nasliy faktorlar.
7. Sotsial-maishiy sharoitning yomonligi.

Bu holat pedagogik qarovsizlikka, vegetativ disfunktsiyaga, emosional-irodaviy muhitning buzilishlariga va nutqning rivojlanmay qolishiga sabab bo'ladi. Nutq nuqsonlarini bartaraf etishda bir qancha usullardan foydalanish mumkin. Logoped olib boradigan pedagogik tuzatish ishning asosiy vazifasi bolalar nutqidagi nuqsonlar va ruhiy noto'kis jihatlarni bartaraf etish. Logoped o'z uslubi va vositalarini nutq nuqsoni bor bolalarga ta'sir etishda qo'llay biladigan zarur mutaxassislarning ham tibbiy-pedagogik ishni tashkil etadi. Bu mashg'ulotlarda nutq n bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarda to'g'ri nutq rivojlantirish, artikulyatsiyani, mayda qo'l motorikasini rivojlantirish va o'yinlardan foydalanish kattä ahamiyatga ega. Mayda qo'l motorikasini rivojlantirishda o'yinlarning o'rnini juda katta hisoblanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning asosiy faoliyati o'yindir. U orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O'yin bolaning kelajakdagi o'quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatining qay darajada shakllanib borishini belgilaydi. O'yin qadim zamonlardan beripedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san'atshunos olimlar diqqatini o'ziga tortib kelgan. O'yin bolalar uchun haqiqiy xayotdir. A.P.Usova shunday degan edi “Bolalar hayoti va faoliyatini to'g'ri tashkil etish – ularni tarbiyalash demakdir. Bolalarning tarbiyalanishining o'yin shakli shuning uchun ham samarali natija beradiki, o'yinda bola yashashni o'rganmaydi, balki o'z xayoti bilan yashaydi”.

O'yin faoliyatidan ko'p qirrali va keng foydalanish, o'yinorqali bolaga har tomonlama ta'sir etishdir. O'yin bolalar yoshiga xos va mos bo'lishi kerak. Ya.A. Kamenskiy., E.A.Polkov o'z asarlarida bolalar o'yiniga jiddiy e'tibor berilganligini ko'ramiz. U “bolalar o'yinini e'zozlang, haqiqiy mehnatsevarlarni tarbiyalashda u sizning eng yaxshi hamkoringizdir”- degan fikrlarni bildirgan. O'yinda yosh organizmga xos bo'lgan talab va ehtiyojlar qondiriladi, hayotiyfaollik ortadi, birdamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. Shuning uchun ham bolalarni jismoniy tarbiyalash tizimida o'yin munosib o'rin egallaydi.

Atoqli pedagog va shifokor E.A.Arkin o'yin ruhiy vitamin deb bekorga aytmagan. A.V.Zaporojes bolalar o'yinining ilk yoshdan boshlab kuzatib borish natijasida uni xarakatgakeltiruvchi sabablar, rivojlanish qonuniyatlari, har xil yosh bosqichlarida bolalar o'yinining o'ziga xos tomonlari, mazmuni va tuzilishini o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. Ilk yoshli bolalar o'yin faoliyatining birinchi bosqichi tanishtiruvchi o'yin bo'lib, u narsa-buyum-o'yin faoliyatidir. Uning mazmuni qo'lning murakkab va nozik harakatlaridir. Keyingi bosqich aks ettirish o'yini hisoblanadi. Bu ilk yoshli bolalar o'yini psixologik mazmunining rivojlanishida eng yuqori nuqta hisoblanadi. Kattalar ta'lim-tarbiyaviy ishlarini ma'lum izchillik bilan olib borsalar, bu yoshdagi bolalar narsa va buyumlar nomini, nimaga ishlatilishini bilib oladilar va bu yangi bilimlarni o'z o'yinlarida qo'llay boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalar o'yin mazmuni jihatidan predmetli faoliyatni aks ettiradi. Birinchi yoshning oxiri va ikkinchi yoshdagi bolalar o'yinida syujetni aks ettirish yuzaga keladi. Bola quyidagi buyum bilan undan qanday foydalanish kerakligini aks ettiradi. Masalan, qoshiq bilan ovqat eyiladi, piyoladan choy ichiladi va hokazo. Shuning asosida syujetli-rolli o'yinning dastlabki qirralari yuzaga kela boshlaydi. Navbatdagi bosqich rolli o'yin bo'lib, unda bolalar o'zlariga tanish bo'lgan kattalar mehnati va kishilarning ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradilar. Bolalar o'yin faoliyatining bosqichma- bosqich rivojlanishi to'g'risidagi umumiy tasavvurlar har xil yosh guruhlarida bolalarning o'yin faoliyatiga rahbarlikniig aniq tizimli tavsiyalarini ishlab chiqish imkoniyatini

yaratadi. Bolalar bog'chasining pedagogik jarayonida o'yinning tutgan o'rni juda katta bo'lib, o'yindan maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishda keng foydalaniladi.

Zero:

- o'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi;

- o'yin maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir;

- o'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;

- o'yin bolalarga ta'lim va tarbiya bershining metod va usulidir;

- o'yin bolalarni o'quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir;

O'yin faoliyati orqali bolalarda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. O'yin orqali shaxsning ma'lum bir faoliyatiga bo'lgan qiziqishi ortadi.

2. Kommunikativ muloqat madaniyatini egallashga yordam beradi.

3. Shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi bilim va o'zligini namoyon etishga imkon yaratadi.

4. Hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengishga tayyorlaydi, mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarini xosil qiladi.

5. O'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarni barxamberish imkoniyati yaratiladi.

6. Shaxsning ijobiy xislat va fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi.

7. Insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi.

8. O'yin ishtirokchilarida jamoa, muloqat madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

9. O'yin va o'yin mashqlari tortinchoq bolalarni ham faollashtirishga yordam beradi.

10. O'yin bolalarni nutqini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lib, o'yin va mashqlarda nutqiy material ongli ravishda o'zlashtirilib, mexanik yodlashga yo'l qo'yilmaydi.

11. Takrorlash va mustahkamlash jarayonida nutqiy material tizimlashtiriladi, umumlashtiriladi, bolalar har bir buyumning o'ziga xos sifat va xususiyatlarini bilib oladilar.

Logopedik o'yinlar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan olib boriladi. Logopedik o'yinlarni tashkil etish va o'tkazishda logoped turli nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning qobiliyatlarini e'tiborga olishi lozim.

Umumiy va nutq matorik asining buzilishlari bo'lgan bolalarning (dizartriklarda) o'yinda tez charchab qolishi kuzatiladi. Harakat bezovtaligi,

o'ziga ishonchsizlik, nutqiy charchashlar, jamoada o'yinga kirishishda qiyinchilik tug'diradi.

Alalik bolalarda, o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yin mazmuni maqsadga yo'naltirilgan harakatni bildirmaydi. O'yin ularda bir xil mazmuni va taqlidni aks ettiradi.

Duduqlanuvchi bolalarda o'yinda uyatchanlik, noto'g'ri nutqidan qo'rqib, o'yinga tez kirisha olmasliklarini kuzatamiz. Ular o'yinda ko'pincha tomoshabin bo'ladilar yoki ikkilamchi rollarni tanlaydilar.

O'yin bolalarning aqliy axloqiy jismoniy va estetik rivojlanishida asosiy faoliyatlardan biridir. Bolalar bilan olib boriladigan logopedik o'yinlar tovushlar talaffuzi, lug'at, nutqning tempi va ravonligini normaga keltirish ustida ish olib boriladi.

Logopedik o'yinlarni o'tkazishning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolalarni to'g'ri nafas olish va nafas chiqarishga o'rgatish;
2. Ovozni rivojlantirish. Past va baland ovozda gapirishga o'rgatish;
3. Eshituv diqqati va nutqni eshitishni rivojlantirish;
4. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish;
5. Bolalarda logopedik o'yinlar orqali duduqlanishni bartaraf etish;
6. Bolalarda qo'lining mayda harakatlari, hamda umumiy harakatlarni rivojlantirish.

Didaktik o'yinlar quyidagi maqsadlarda o'tkaziladi. Bolalarda didaktik o'yinchoqlar bilan yakka yakka o'ynash ko'nikmasini rivojlantirish, jamoa o'yinlarini tashkil etish, narsalarni faqat bir rangiga qarab ajratib olish, katta kichikligiga qarab ajratish xalqachalarni va kubikchalarni muntazam shaklda terib, ulardan narsalar yasash.

Musiqaviy didaktik o'yinlarda esa musiqa ovozlarning ba'zi bir xususiyatlarini farq qilishga o'rgatish qadam va yugurish ritmini ajrata bilishga o'rgatish vazifalari ham xalq etiladi. Didaktik o'yin orqali bolalarda eshitish, ko'rish, sezish a'zolari yordami bilan turli narsalar va ularni yasash uchun ishlatilgan materiallarning xossalarini bilib olish, narsalarni tashqi ko'rinishga qarab bir biriga taqqoslash guruhlariga ajratishni o'rgatish vazifalari amalga oshiriladi. Didaktik o'yin davomida bolalar o'rta qo'yilgan masalani hal etishda sabrmatonatli bo'lishga, qiziquvchanlikka, diqqat e'tiborlikka odatlantirib boriladi. Musiqaviy didaktik o'yinlar orqali tovushlarni diqqat bilan tinglab baland pastligiga ritmiga, tembriga, dinamikasiga qarab bir biridan farq qila olishga o'rgatib boriladi. Katta guruhda didaktik o'yinlar quyidagi vazifalarni hal etishni maqsad qilib qo'yadi. Kuzatuvchanlik, narsalarni tekshira bilish, bir birini taqqoslay olish, ularning belgilaridagi kichik farqlarni aytib bera olish kabi sensor qobiliyatlarini tarbiyalash, biron hayvon, o'simlik, transport ta'rif tavsif qilib

berilganda ularning nomini topa olish malakasini o'stirish, bolalarni umumiy tasavvurini buyumlarni umumiy belgilariga qarab guruhlariga bo'lish qobil yatini rivojlantirish, so'z boyligini faollashtirish va to'ldirish, qismlardan yaxlit narsalar (kubiklar, mozaika va boshqalar) yasash malakasini o'stirish.

Xulosa qilib aytganda, logopedik o'yinlar bolalarning jismoniy yetuk bo'lishi, aqliy va axloqiy jihatdan tarbiyalanishlari, shuningdek nutq nuqsonini bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga o'yin bolalarni rivojlanishi uchun sharoit yaratadi, ya'ni o'yin jarayonida bolalarda o'zaro munosabat malakalari paydo bo'ladi, murakkab axloqiy, his-tuyg'ular shakllana boradi.

O'yinni to'g'ri tanlash va bolalar bilan to'g'ri o'tkazish juda muhim ahamiyatga ega. To'g'ri tashkil qilingan o'yin nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda yangi so'zlarni qo'llash uchun ehtiyoj tug'diradi, ularning lug'at boyligi oshadi, nutqidagi kamchiliklar korreksiyalanib boradi. O'yin mashqlari tortinchoq bolalarni faollashtirishga yordam beradi. O'yin bolalarning nutqini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lib, o'yin va mashqlarda nutqiy material ongli ravishda o'zlashtirilib, mexanik yodlashga yo'l qo'yilmaydi.

Logoped o'yinlarni o'tkazish orqali bolada nutqidan uyalmaslik, muloqotga kirishishi, to'g'ri va ravon gapirish kabi sifatlarni rivojlantirib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Y. Ayupova. Logopediya. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2019-yil
2. Islomova, O. (2021). UMUMTA'LIM MAKTABLARI QOSHIDAGI LOGOPEDIYA SHAXOBCHALARI ISHINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA PEDAGOGIK TAVSIYALAR. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2619>
3. Islomova, O. (2020). UMUMIY TIPDAGI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLALAR NUTQINI TUZATISHDA SIFATLI LOGOPEDIK XIZMAT. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, (1).
4. Islomova, O. (2022). NUTQ BUZILISHLARI PSIXOPROFILAKTİKASIDA TURLI XIL PSIXOLOGİK O'YINLARNI TASHKIL ETISH. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4821>

5. Islomova, O. (2022). NUTQ NUQSONLARINI KORREKSIYALASHDA “STEM” TIZIMIDAN FOYDALANISH. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4824>
6. Islomova, O. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI NUTQ NUQSONIGA EGA BO'LGAN BOLALAR XOTIRA XUSUSIYATI VA UNING RIVOJLANISHIGA TO'SQINLIK QILUVCHI OMILLAR. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4823>
7. Ozoda Islomova, [UMUMTA'LIM MAKTABLARI QOSHIDAGI SHAXOBCHALARDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPLEKS LOGOPEDIK TIZIMLI ISHLARNI TASHKIL ETISH](#), *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: Том 2 № 6 (2022): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari*
8. Islomova, O. (2020). MAKTABGACHA YOSHDAGI DUDUQLANUVCHI BOLALAR NUTQINI ZAMONAVIY O'YINLAR ORQALI KORREKSIYALASH. *Scienceweb academic papers collection*.
9. Muzaffarova, X. (2021). AQLI ZAIFLIK TUSHUNCHASI TALQINIDAGI NAZARIY XATOLARNING SALBIY OQIBATLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (2).
10. Музаффарова, Х. Н., & Эгамназаров, М. Ю. (2017). Махсус таълимда болалар интеллекти даражасини аниқлашда психологик-педагогик эксперимент ўтказиш технологияси. *Современное образование (Узбекистан)*, (7).
11. Тангирова, Д., & Музаффарова, Х. (2014). Нарушения фонетических норм, встречающиеся в речи учащихся, и пути их исправления. *Молодой ученый*, (20), 738-740.
12. Muzaffarova, X. O'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari. *Bola va Zamon jurnal. T*, (2-2019).

13. Muzaffarova, X. (2020). Kar bolalarda og'zaki nutqni shakllantirish. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
14. Haqberdiyev, J. (2021). MAXSUS MAKTAB-INTERNATDA KOKLEAR IMPLANTLI BOLALARDA NUTQIY MULOQOTNI SHAKLLANTIRISH. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (2).
15. Muzaffarova, X. (2021). Ақли заиф болаларни ташхислаш ва уни амалга оширишга қўйиладиган талаблар. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1).
16. Qizi, D. S. B. (2020). KAR BOLALAR NUTQINING RIVOJLANGANLIK DARAJASI. *Science and Education*, 1(2).
17. Axrorova, S. (2021). РАННИЙ ДЕТСКИЙ АУТИЗМ И РАБОТА ПО РАЗВИТИЮ РЕЧИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://matinfo.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1788>
18. Axrorova, S. (2021). ИГРА КАК СРЕДСТВО КОРРЕКЦИИ АУТИСТИЧЕСКОГО ПОВЕДЕНИЯ У ДЕТЕЙ ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА ТЕРАПИИ ИГРОЙ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(1). извлечено от <https://matinfo.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/710>
19. Malikaxon Qodirova, [МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING BILISH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH](#), *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 3 (2021): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari*
20. Malikaxon Qodirova, [МАШҒУЛОТЛАР ВА УЛАРНИНГ БОЛА ИДРОКИНИ ШАКЛЛАНИШИДАГИ АҲАМИЯТИ](#), *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari*
21. Malikaxon Qodirova, [O'SMIRLAR PSIXOLOGIYASI VA O'SMIR XULQ-ATVORINING O'ZIGA HOSLIGI](#), *Журнал Педагогики и психологии в*

современном образовании: № 3 (2021): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari

22.Malikaxon Qodirova, AGRESSIYANING NAZARIY ASOSLARI, Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 3 (2021): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari

23.Malikaxon Qodirova, ВОСПРИЯТИЕ " Я " У ДЕТЕЙ, Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 1 (2020): Journal of Pedagogy and psychology in modern education

24.Malikaxon Qodirova, ЧЕЛОВЕК И СТРЕСС, Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 1 (2020): Journal of Pedagogy and psychology in modern education

25.Dilfuza Qarshiboyeva, КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ, Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari

26.Dilfuza Qarshiboyeva, IMPORTANCE OF PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES, Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: Том 1 № 4 (2021): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari

27.Qarshiboyeva, D. (2021). ЁШЛАРНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИШДА ИЛМИЙ ИЗЛАНИШЛАР ҲАҚИДАГИ БИЛИМЛАР УЗЛУКСИЗЛИГИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://art.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2906>

28.Toshpo'latova, N. (2021). СНЕТ ТИЛИ ФАНЛАРИНИ О'QITISHDA О'QUVCHINING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISH USULLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/3073>

29.Ахмедова Насиба Ачилевна, СОҒЛОМ МУҲИТ –СОҒЛОМ ОИЛА ТАЯНЧИ.<https://history.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2966/1982>

- 30.Imomqulova, F. (2021). ОИЛАДАГИ ТАРБИЯ УСУЛЛАРИНИ БОЛАНИНГ МУВАФФАҚИЯТГА ЭРИШИШИГА ТАЪСИРИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/3076>
- 31.Imomqulova, F. (2021). ОИЛАДА ЭР-ХОТИН МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2962>
- 32.Imomqulova, F. (2021). ISSUES OF UPBRINGING IN UZBEK FAMILIES. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2620>
- 33.Imomqulova, F. (2021). ISSUES OF UPBRINGING IN UZBEK FAMILIES. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2620>
- 34.Mamaraimova, R. (2022). ЎҚУВ ЖАРАЁНИНИНГ ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАР ЁРДАМИДА ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ МАЗМУН МОЎЖИЯТИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5112>
- 35.Ra'no Mamaraimova, [КИЧИК МАКТАБ ЁШИ ЎҚУВЧИЛАР КОМПЕТЕНТЛИК ХУСУСИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ БАЪЗИ ЖИҲАТЛАРИ](#), Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 2 (2021): Журнал педагогика и психологии в современном образовании
- 36.Majidov, Jasur Baxtiyarovich (2022). SOTSIAL INTELLEKT VA UNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (2), 608-613.

- 37.Эшонкулова, Х. (2022). ИҚТИДОРЛИЛИК МУАММОСИНИНГ ПСИХОЛОГИК ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, 2(7).
извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5762>
- 38.Siddiqova, S. (2022). УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА МУСТАҚИЛ ФИКРЛОВЧИ, ИЖОДКОР ШАХСНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, 2(3).
- 39.Siddiqova, S. K. (2021). INCREASE THE CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS COGNITION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Theoretical & Applied Science*, (2), 24-26.
- 40.Siddiqova, S. (2022). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ БИЛИШ, ИЖОДИЙ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШ. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, 2(3).
- 41.Siddiqova, S. (2021). ЎҚУВ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ. *Джизакское инновационное образование*, 1(1).
- 42.Isoqulov, M. (2022). ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ЖАҲОЛАТГА ҚАРШИ МАЪРИФАТ РУҲИДА ТАРБИЯЛАШДА ВЕРТУАЛ СТЕНДЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, 2(3).
извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5620>
- 43.Soibnazarova, M. (2022). YOSHLAR TARBIYASIDA ABDURAHMON JOMIYNNIG ASARLARIDAN FOYDALANISH. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, 2(3).
извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5634>
- 44.Sanakulova, Z. A., & Soibnazarova, M. N. (2017). Modular training as a pedagogical technology. *Pedagogicheskoe masterstvo: X Mezhdunarodnaya nauchnaya konferentsiya, Moskva, iyun'2017*
- 45.Soibnazarova, M. (2022). ЁШ АВЛОДНИНГ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТАРБИЯСИДА МУТАФАККИРЛАРНИНГ ФИКРЛАРИДАН

ФОЙДАЛАНИШ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от

<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5573>

46. Санакулова, З. А., & Соибназарова, М. Н. (2017). Модульное обучение как педагогическая технология. In Педагогическое мастерство (pp. 20-22).

47. Санакулова, З. А., Соибназарова, М. Н., Бойтураева, Н. И., & Юлдашев, Ш. Э. (2016). Психологические условия формирования навыков самостоятельного мышления у учащихся. Молодой ученый, (8), 1022-1024.

48. Axmedova, S. (2022). MAKTABLARDA O'QITISH TIZIMINING TA'LIM OLUVCHILAR YOSHI BILAN BOG'LIQLIGI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(4). извлечено от

<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5879>